



JIZZAX VILOYAT
STATISTIKA BOSHQARMASI

JIZZAX VILOYATINING
DEMOGRAFIK HOLATI

*2024- yil
yanvar-mart*



JIZZAX VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2024- yil 1- aprel holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Jizzax viloyatida 2024- yil 1- aprel holatiga doimiy aholi soni **1514,5** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **7,1** ming kishiga yoki **100,5 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **710,6** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **46,9 %**), qishloq aholisi soni **803,9** ming kishi (**53,1 %**)ni tashkil etdi.

Doimiy aholi soni

1514,5 ming kishi

Tabiiy o'sish

+7,6 ming kishi

Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

Shahar




46,9%

Qishloq



53,1%

Aholining tabiiy harakati, ming kishi




Jizzax viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar

2024- yil yanvar-mart



Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2024- yil 1- aprel holatiga




Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi

1- aprel holatiga, ming kishi

	2023- yil	2024- yil	O'sish sur'ati, % da
Jizzax viloyati	1483,1	1514,5	102,1
<i>hududlar:</i>			
Jizzax sh.	192,9	196,8	102,0
Arnasoy	48,2	48,9	101,5
Baxmal	167,5	171,3	102,3
G'allaorol	183,8	187,8	102,2
SH.Rashidov	238,2	244,4	102,6
Do'stlik	69,1	70,2	101,6
Zomin	176,3	180,6	102,4
Zarbdor	93,1	95,1	102,1
Mirzacho'l	54,7	55,6	101,7
Zafarobod	52,9	53,9	101,9
Paxtakor	79,7	81,3	102,0
Forish	97,2	98,7	101,5
Yangiobod	29,5	29,9	101,4

Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni

2024- yil 1- aprel holatiga



2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra, Jizzax viloyat doimiy aholisi sonining **33,5 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **55,7 %** i mehnatga layoqatli yoshdagilar va **10,8 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

QAYD ETILGAN TUG'ILISHLAR

Ma'lumot uchun!: tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urish, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishi) biri mavjud bo'lsa bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Qiz bola:

4,4 ming kishi

O'g'il bola:

4,7 ming kishi




2024- yil yanvar-mart oylarida **9,1** mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **24,3** promilleni tashkil etdi hamda bu ko'rsatkich 2023- yilga nisbatan minus **2,5** promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yilda **26,8** promilleni tashkil etgan).

Hududlar kesimida tugʻilganlar soni va koeffitsiyenti

2024- yil yanvar-mart, kishi

	2023- yil	2024- yil	Oʻsish surʻati, % da
Jizzax viloyati	9761	9114	93,4
<i>hududlar:</i>			
Jizzax sh.	1429	1037	72,6
Arnasoy	267	258	96,6
Baxmal	1184	1077	91,0
Gʻallaorol	1220	1260	103,3
SH.Rashidov	1633	1690	103,5
Doʻstlik	411	358	87,1
Zomin	1244	1217	97,8
Zarbdor	625	581	93,0
Mirzachoʻl	251	248	98,8
Zafarobod	306	277	90,5
Paxtakor	538	455	84,6
Forish	503	529	105,2
Yangiobod	150	127	84,7




Tug‘ilishlarning chaqaloqlar soni bo‘yicha taqsimlanishi*2024- yil yanvar-mart***VAFOT ETGANLAR**

2024- yilning yanvar-mart oylarida **1 469** ta o‘lim qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga o‘lim koeffitsiyenti **3,9** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan o‘limlar soni minus **0,3** promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar- mart oylarida **4,2** promille bo‘lgan).


O‘limning asosiy sabablari bo‘yicha taqsimlanishi*2024- yil yanvar-mart, kishi*

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi
(jami vafot etganlarga nisbatan, % da)




2024- yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan o'lim holatining **52,9** % i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **8,8** % i – o'simalardan, **10,4** % i – nafas olish a'zolari kasalliklaridan, **7,3** % i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **4,7** % i – ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, **1,4** % i – yuqumli va parazitlar kasalliklardan, **14,5** % i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

QAYD ETILGAN NIKOHLAR



2024- yilning yanvar-mart oylarida **1568** ta nikoh qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **4,2** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan minus **0,3** promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar- mart oylarida **4,5** promille bo'lgan).


NIKOHDAN AJRALISHLAR



2024- yil yanvar-mart oylarida **444** ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,2** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan o‘zgarish kuzatilmadi (2023- yil yanvar- mart oylarida **1,2** promille bo‘lgan).

Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo‘yicha taqsimlanishi

2024- yil yanvar-mart



2024- yil yanvar-mart oylarida Jizzax viloyatida jami nikohdan ajrashganlarning **54,5 %** i farzandsiz, **24,3 %** i bitta farzand bilan va **21,2 %** i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to‘g‘ri kelgan.


AHOLI MIGRATSIYASI

(Doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar)

2024- yil yanvar-mart oylarida Jizzax viloyati bo‘yicha doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar jami soni **1500** kishini. Doimiy yashash maqsadida ko‘chib ketganlar soni jami **2096** kishini, migratsiya saldosi minus **596** kishini tashkil etdi. 2023 yilning mos davrida minus **585** kishi bo‘lgan.

Jizzax viloyati bo'yicha ko'chib kelganlarning taqsimlanishi


2024- yil yanvar-mart, (kishi soni)



2024- yilning yanvar-mart oylarida **1500** kishi ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib kelish koeffitsiyenti **4,0** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan **0,2** promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar- mart oylarida **4,2** promille bo'lgan).

Jizzax viloyati bo'yicha ko'chib ketganlarning taqsimlanishi

2024- yil yanvar-mart, (kishi soni)



2024- yilning yanvar-mart oylarida **2096** kishi ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyenti **5,6** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan **0,2** promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar- mart oylarida **5,8** promille bo'lgan).

Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasaliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Ko'chib kelganlar soni – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.



Ko‘chib ketganlar soni – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib ketish.

Aholining migratsion o‘sishi (farqi) – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya va mehnat statistikasi bo‘limi

Tel: 72 221-54-00